

**Teshaboyev Abbas,**  
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi  
E-mail: [abbos030494@mail.ru](mailto:abbos030494@mail.ru)

## MAHALLA INSTITUTI RIVOJLANISHINING IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida Mahalla institutining tutgan o'rni va uning yoshlarimiz ta'lim tarbiyasidagi ahamiyati hamda bu sohada olib borilayotgan ishlari haqida fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** Mahalla instituti, dasturlar, qonunlar, qarorlar, taraqqiyot strategiyasi, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, mahalla oqsoqollari, "inson-jamiyat-davlat", Alisher Navoiy.

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ИНСТИТУТА МАХАЛЛИ

### **Аннотация**

*В данной статье изложены взгляды на роль института махалли в общественно-политической жизни Узбекистана и его значение в образовании и воспитании молодежи, а также проводимая работа в этой области.*

**Ключевые слова:** институт махалли, программы, законы, решения, Стратегия развития, Государственное управление, труды ученых СНГ, гражданское общество, старейшины махалли, "человек-общество-государство", Алишер Навои.

## SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF THE NEIGHBORHOOD INSTITUTE

### **Abstracts**

*This article describes the place of the Mahalla Institute in the social and political life of Uzbekistan, its importance in the education of our youth, and the work carried out in this field.*

**Key words:** neighborhood institute, programs, laws, decisions, Development strategy, State administration, works of CIS (common independent states) scientists, civil society, neighborhood elders, "man-society-state", Alisher Navoi.

### **Kirish**

Mamlakatimizda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati samaradorligini oshirish, unda jamoatchilikning ishtiroki va nazoratini takomillashtirish muhimdir. Zero, dasturlar, qonunlar, qarorlar hayotda amalda ijro etilganda va jamiyat turli-tuman illatlardan tozalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin"[1]. Bu esa, mahalliy vakillik hokimiyatining vakolat va vazifalari jiddiy islohotlarni talab etayotganligiga borib taqaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mahalliy ijro hokimiyatining samarali faoliyati ko'p jihatdan mahalliy vakillik organlarining ta'sir kuchiga bog'liq. Birinchidan, mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan qarorlar bajarilishini ta'minlashda mahalliy vakillik organlarining nazoratiga olinishida to'siq bo'layotgan qator holatlarni aniqlash va oldini olish, ikkinchidan, mahalliy boshqaruvda jamoatchilikning o'z vakillari orqali ishtiroki darajasini oshirish jarayonida kuzatilgan kamchiliklarni ilmiy tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Sharqda Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida boshqaruv jarayonini amalga oshirishda adolat me'zoniga qat'iy amal qilish va kengash bilan maslahatlashish kerakligi ta'kidlanadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning asarlaridagi O'zbekistonda davlat boshqaruvining samarali tashkil etilishiga oid fikr va g'oyalar ushbu maqolaga ilmiy-metodologik asos bo'lib hizmat qildi. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining nazariy masalalari mamlakatimizda: Sh.Jalilov, I.Jurayev, Yo.Ollamov, O.Xusanov, D.Bekchanov, Sh.Fayziyev va S.Xidirov kabi olimlarning izlanishlarida keng yoritib berilgan. Mazkur tadqiqotchilar asarlarida asosiy e'tibor mahalliy hokimiyat faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslariga qaratilgan bo'lib, unda mahalliy boshqaruv me'yoriy jihatdan ko'proq talqin etilgan. Qolaversa, R.Jumayev, A.Japilov, M.Turaqulov, B.Jurayev va X.Jurabekovalarning asarlarida davlat boshqaruvini demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyatining ahamiyati hamda nomarkazlashtirish jarayoniga oid nazariy jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining u yoki bu jihatlari yoritilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayni vaqtda, ijro hokimiyati va mahalliy kengashlarda tashkiliy jihatdan transformatsiya jarayonlari kechayotgan bir paytda, har ikki hokimiyatning o'zaro funksiyalarini ajratib ko'rsatishga qaratilgan ilmiy adabiyotlarga extiyoj yanada ko'proq sezilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng qisqa vaqt ichida asrga tatigulik ko'plab ishlar amalga oshirildi. Shu yillar mobaynida mamlakatimizda kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish uchun boshqaruv tizimini isloh qilish borasida ham talaygina ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, mahallalar faoliyati butunlay yangicha mazmun kashf etib, jahon tajribasida mahalla deb ataluvchi yagona, betakror boshqaruv instituti faqat bizdagina mavjud[2].

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "... bugun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi zarur. Chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni xal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodirdir[3], degan so'zlari bu sohani yangi davrga olib chiqdi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ko'rsatilishicha "mahalla" atamasi arabcha bo'lib, "o'rin-joy" degan ma'noni anglatgan. U turli mintaqalarda mahallot(joy)guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan. Adabiyotlarda mahallalarning ko'pining yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" asarida mahallani "mahalla shahar

ichidagi shaharcha”dir deb ta’riflaydi. Hirot shahri yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo’lgan mahallalardan tashkil topganligini aytib o’tadi. Mahallalar ayniqsa, Amir Temur davrida ravnaq topgan. Mahallalar fuqorolarning kasb-kori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko’nichilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi va h.k.[4].

Mahalla, o’zini-o’zi boshqarish organlarining eng yorqin ko’rinishi, ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi deb tan olinganligi bilan ham o’zining yuksak mavqeiga ega hisoblanadi.

Shuningdek, Prezidentimizning tashabbusi bilan 2022-yil “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili” deb e’lon qilinib, bu bo’yicha davlat dasturi loyihasi ham yangi strategiyadan kelib chiqib tayyorlangan. Ochiq muhokamalar jarayonida aholidan 17 mingdan ziyod takliflar olingan. Ular tasniflanib va umumlashtirilib, dastur loyihasi 300 dan ortiq tashabbuslar bilan to’ldirilgan. Davlatimiz rahbari xalqimizga bunday faolligi, islohotlarga ishonchi va daxldorligi uchun minnatdorlik bildirdi.

Inson qadri biz uchun qandaydir mavxum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo’lgan mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo’g’iniga aylantirish vazifasini o’z oldimizga qo’ymoqdamiz. Mahalla tinch bo’lsa, yurt tinch bo’ladi. Mahalla obod bo’lsa, butun mamlakat obod bo’ladi, - deya bejiz ta’kidlamagan edi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev[5].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotni olib borishda mantiqiylik, tizimlilik, tarixiylik, qiyosiylik, empirik tadqiqot, o’zaro aloqadorlik ilmiy tadqiqot tamoyillaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Tadqiqotimiz jarayonida shunga amin bo’ldikki, “Mahalla”ning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi xalqimizning uzoq tarixi, ma’naviyati va turmush kechirish jarayonlari bilan uyg’unlashib ketgan. XX asrning oxirgi o’n yili va XXI asrning boshi mustaqil O’zbekistonda milliy davlatchilikni shakllantirish, demokratik institutlarni rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilgan davr bo’lib tarixda qoladi.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni kechayotgan ekan, mamlakatimiz aholisining turli qatlamlari manfaatini ifoda etuvchi nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifa bo’lib qolmoqda.

Ma’lumki, o’zbek xalqi jahon xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar orasida birinchilardan bo’lib o’troqlashgan qadimiy madaniy xalqlardandir. Shaharlarimiz ham, katta qishloqlarimiz ham azal-azaldan mahallalarga bo’lingan. Chunki daryo bo’ylaridagi serhosil yerlar, tabiiy sharoit shunday hayot tarzini taqozo qilgan. Qadimgi turkiy tilda mahalla iborasi o’rnida “kuy” so’zi ishlatilgan. Bu so’z mahalla-kuy juft so’zi tarkibida qo’llanadi. Toshkentda bir so’z ikki o’rinda -

mahalla va turar joy ma'nolarini ifodalagan holatlarni uchratamiz. Birinchisi, Sobir Rahimov tumanida Xofizkuy (xofiz - Qur'oni Karimni to'liq yod olgan qori) mahallasi bor. Ikkinchisi, Shayxontoxur tumani, Ko'kcha dahasidagi Shayx Zayniddin bobo qabristoni atrofidagi joylar qadimda Kuyi Orifon - oriflar (yetarli diniy va dunyoviy bilim egalari) mahallasi deyilgan. Kuy iborasi Turonning boshqa hududlarida va bir qator turkiy xalqlarning tillarida ham saqlanib kelmoqda. Qrimdagi tumanlardan biri "Jonkuy" deb ataladi. Turkiya Jumhuriyatida "kuy" iborasi mahalla atamasi o'rnida rasman qo'llanadi: Bakirkuy, Otakuy, Xo'jakuy va hokazo.

O'tmishda katta shaharlarimiz avvalo dahalarga, dahalar esa mahallalarga bo'lingan. Mahallalardagi hokimiyatni ellikboshi boshqargan, diniy ishlarga mahalla masjidining imomi yetakchilik qilgan. Mahallalarga bo'lingan katta qishloqlarni amin boshqargan, kichik qishloqlarni qishloq oqsoqoli idora qilgan.

Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Mahmud Qoshg'ariy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida mahalla to'g'risidagi ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Masalan, Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Beruniyning "Uy xo'jaligini yuritish to'g'risida", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarlarida mahalla aholisi, ularning kasbi-kori, urf-odatlarini, an'analari, diniy e'tiqodi, xo'jalik yuritishi va umuman o'ziga xos turmush tarzi haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tganlar [6].

Demokratiyaning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi hisoblanadi. O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tizimining asosiy bo'g'inini mahallalar tashkil qiladi. Demak, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishini yaxshi bilishimiz uchun, avvalambor, uning asosiy bo'g'inini bo'lmish mahallalarning tarixini o'rganishimiz lozim, zero haqqoniy tarixni bilmadan turib o'zlikni anglash mumkin emas [7].

Binobarin, ma'naviy boy, axloqan pok, jismonan sog'lom farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazish dastlab oila va mahallada amalga oshiriladi. Insonga bir umr hamroh bo'ladigan insoniy fazilatlar - ezgulik, yaxshilik, mehnatsevarlik, yaratuvchanlik, fidoiylilik, sadoqat, mardlik kabilarning barchasi oiladan boshlanadi. Oila yoshlarni axloqodobi, rostgo'y mehnatsevar, halol bo'lib voyaga yetishi uchun zamin tayyorlaydi. Oila va mahalla shunday bir muqaddas makonki unda insonlar bir-birlari bilan opasingil, aka-uka, quda-anda, do'st-birodar bo'lib, bir xonadon tarbiyasida ham barcha mahalla ahli mas'ul, yutuqlar ham kamchiliklar ham xalqimizda "Otang-mahalla, onang-mahalla" degan naql bejiz aytilmaydi. Mustaqillik tufayli mahallalarni har tomonlama barkamolligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1992-yil 12-sentabridagi farmoniga ko'ra "Mahalla" hayriya jamg'armasi tashkil etildi [8]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-sentabrdagi 489 – sonli "Respublika Mahalla hayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi Qarori[9], 1993-yil 2-sentabrda va Oliy Majlisning 1999-yil 14-apreldagi XIV sessiyasida yangi tahrirda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish to'g'risida"gi qonun [10] asosida mahallaning maqomi mustahkam huquqiy asosga ega bo'ldi.

Mahallada o'tayotgan har bir bolaning axloq - odobi uchun butun mahalla ahli mas'uldir. Shuning uchun ham "Bir bola tarbiyasiga yetti ota-ona" kabi naqlar bejiz

paydo bo'lmagan. Yoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi barkamol insonni tarbiyalab yetishtirishning negizidir. Agar bola yetmish foiz ma'lumotni besh yoshgacha oladigan bo'lsa, shaxs ma'naviyatini shakllanishida oilaning ahamiyati nechog'lik katta ekanligi namoyon bo'ladi. "Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu-saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu-saodat faqat boylik, molu-mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir" [11]. Shu o'rinda xulq odobi yaxshi har tomonlama namunali farzand mahallaning obro'sidir. Noqobil ahloqan nomaqbul farzand esa - mahalla uchun qora dog'dir. Mahalladan yurtga taniqli insonlar yetishib chiqsa, butun mahalla ahli, ularning avlod -ajdodlari g'ururlanadilar.

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda, ushbu qilinadigan ishlar mahalla bilan oila hamkorligini mustahkamlaydi. Yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar mahallaga hurmat, u yerda istiqomat qiluvchilarga nisbatan yaqinlik, mehr - oqibat ruhida tarbiyalanadilar. Mahallaning to'y-ma'rakalarida o'zlarining ota - bobolariga o'xshab yelkadosh, birovning og'irini yengil qilishga shay bo'lib o'sadilar. Mustaqillik davrida o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida isloh etish o'zining samarasini berdi. Mahallalar mamlakatdagi aholini o'zini o'zi boshqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, qarorlar qabul qilishda fuqarolar xohish va istaklarini e'tiborga olishga imkoniyatlar yaratishi bilan fuqarolik jamiyati institutiga aylanib bormoqda.

*Takliflar.* 1. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda Mahallaning o'rnini yanada mustahkamlash

2. "Otang-mahalla, onang-mahalla" va "Bir bola tarbiyasiga yetti ota-ona" iborasini amaliyotga targ'ib etish

3. Mahalla nomlarini qo'yishda tarixiy kelib chiqishini inobatga olish,

4. Mahallalarda milliy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni va milliy sport o'yinlarini tashkil etish,

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib va intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - B. 10.
2. Jalilov Sh.N. Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari: tajriba, taxlil, amaliyot. - T. O'zbekiston, 2001. 3-6.
3. Mahalla – tinchlik va osoyishtalik, obodlik va farovonlik markaziga aylanadi. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 12 fevral kuni maxalla tizimini takomillashtirish, maxallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olishmasalalariga bagishlangan videosektor yifilishi // Xalq so'zi. 13-fevral. № 32.- Toshkent, 2020.
4. Qarang: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. : O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2003,548-550-b5.
5. Xalq so'zi. 2022-yil 27-yanvar. № 18. (8080) 1-sahifa

6. G‘ulomov M. Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi. T.: “Adolat”. 2003. – B. 23.
7. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q // Muloqot. 1998. №5. 16-6.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla” hayriya jamg‘armasi tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni, 12.09.1992-yildagi PF-472-son
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-sentabrdagi “Respublika mahalla hayriya jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish masalalari tog‘risida”gi 489 – sonli Qarori
10. 1993-yil 2--sentabrda va Oliy Majlisning 1999-yil 14-apreldagi XIV sessiyasida yangi tahrirda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish to‘g‘risida”gi qonun
11. Kattakulovna, T. S., Khudoiberdievich, T. B., Evatovich, R. A., Norkulovich, J. B., & Buriniyozovna, E. S. Increasing protection of the rights and interests of youth in Uzbekistan.[Electronic Resource]. URL: <https://philosophicalreadings.org/2021-13-4/>(date of access: 15.06. 2022).